

...Biz o'zligini, o'z qadr-qimmatini, Vatani oldidagi o'z burchini chuqur anglagan, o'z oldiga baland marralar qo'yib, dunyodagi barcha tengdoshlari bilan bellashuvga tayyor farzandlarimni bizning ishonchimiz va tayanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz, deb yuksak qadrlaymiz va siz yoshlarimizni e'zozlab kamol toptirishda o'zimizni hech qachon ayamaymiz.

Islom KARIMOV

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan Bittadir!

N:12 (66969)

2014-yil
24-mart



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**USHBU
SONDA:**

**Yuraklarni
zabt etgan
shoir**

2-bet

**Ibratli
hayot**

4-bet

**«Mustaqillik
madhi bolalar
ijodida»
tanlovi**

5-bet

**Dunyodagi
antiqa
ko'priklar**

8-bet

**HAR KUNIMIZ
NAVRO'Z BO'LSIN!**

YURAKLARNI ZABT ETGAN SHOIR

Diyorimizda sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf tavallud ayyomiga bag'ishlab o'tkazilayotgan tadbirlar o'ziga xos adabiyot bayramiga aylanib bormoqda. Ana shunday tadbirlardan biri yaqinda poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi tibbiyot kollejida bo'lib o'tdi. Unda o'qituvchilar, kollej o'quvchilari, ota-onalar hamda OAV xodimlari ishtirok etishdi.



Ayniqsa, o'quvchilar tomonidan ijro etilgan qo'shiq va raqslar barchani birdek quvontirdi. Ko'plab ijodiy uchrashuvlarning guvohi bo'lgan shoir, gazetamizning adabiyot va san'at bo'limi mudiri Axtamqul KARIMOV ham o'quvchilarning tadbirga jiddiy tayyorgarlik ko'rganlaridan zavqlanib, o'z ijodidan she'r-u g'azallar o'qidi.

Tadbirdan qaytarkanmiz, O'g'iloy Muhammedova, Zarifa Nishonaliyeva, Matluba Saidaliyeva, Dildora Hakimova va Himoyat Nasimjonova kabi ustozlar mehnatiga tasannolar aytdik.

Niyatimiz, ana shunday ibratli maskanlar va fidoyi ustozlar ko'payversin!

Yusuf ABDULLAYEV.
Muallif olgan surat



«BALLI, QIZLAR!»da KIM G'OLIB?

Balli, qizlar! Bu olqishni eshitishni, pazandalig-u milliy raqs kabi shartlar bo'yicha tengdoshlari bilan bellashishni istamaydigan qizning o'zi bo'lmas kerak-a?

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 59-maktabning o'quvchi-qizlari ham ana shu istakda tadbir tashkillashtirishdi. Zulfliya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Dilafro'z Usmonova bilan bo'lib o'tgan uchrashuv qizlarning bellashuviga ulanib ketdi. Ayniqsa, 4-5-sinf qizlarining «Balli, qizlar!», 8-9-sinf o'quvchilari o'rtasidagi «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovlari qiziqarli tarzda o'tdi. Tadbirga taklif etilgan O'zbek Davlat drama teatri aktrisasi Dono Boboxonova qizlarga o'zining qimmatli maslahatlarini berib, ularning faolliklarini olqishladi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Umida Abduazimova va shoir Shukur Qurbon esa ishtirokchilarning har bir shart bo'yicha chiqishlarini baholab borishdi.

Yakunda 9-«A» sinf o'quvchisi

Sevara Saidahmedova ustozlari ishonchini oqlab, g'oliblikni qo'lga kiritdi. 6-sinf o'quvchisi Robiya Rustamova, 5-«A» sinf o'quvchisi Zilola Ismoiljonovanning ishtiroki ham yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Zarifa Pirmuhammedova, tadbir muallifi va boshlovchisi Umida Bahromova, til va adabiyot uslub birlashmasi a'zolari Muhayyo Niyozmetova, Xosiyat Suvonova bosh bo'lgan tadbir ana shunday ko'tarinki ruhda o'tdi.

G'oliblar maktab ma'muriyati hamda homiyilar tomonidan «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Muzaffar AHMEDOV

Yaqinda litseydagi tengdoshlarim bilan birga nihoyatda maroqli va mazmunli sayohatda bo'lib qaytdik. Qanday, deysizmi? Guruhimiz rahbari Bobur Umarov, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Mavjuda Mutolibova rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati binosiga bordik.



MAROQLI SAYOHAT

Yo'l-yo'lakay poytaxtimizda qad rostlayotgan yangi inshootlarni ko'rib, hayratimiz oshdi. Ayniqsa, sharqona va zamonaviy me'moriy uslublarni o'zida jamlagan oppoq Senat binosi bizda katta taassurot qoldirdi.

Biz binoning yuqori qavatida joylashgan muzeyda bo'lib, senator-tibbiyot fanlari doktori, professor, fan-ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Mamazoir Xo'jamberdiyev bilan uchrashdik. U kishi bizga qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlisning yuqori palatasi hisoblangan Senatning, shuningdek, senatorlarning vazifasi haqida keng tushuncha berdi. Senator bilan suhbatlashib, o'tgan yilda erishilgan yutuqlar, «Sog'lom bola yili»dagi rejalar hamda

ta'lim, madaniyat va sport sohasidagi qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar haqida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Yana biz bu suhbatdan o'zimiz uchun zarur xulosalar chiqardik. Yurtboshimiz ishonchini oqlash, Vatanimizning munosib vorislari bo'lish uchun «ommiy madaniyat»ning salbiy ta'sirlaridan ehtiyot bo'lishimiz zarurligini tushunib yetdik. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerakligini angladik.

Senat binosidan qaytar ekanmiz, har birimiz yurt koriga yaraydigan salohiyatli yoshlar safida bo'lishga so'z berdik.

Gulchehra UBAYDULLAYEVA,
Nodira QURBONBOYEVA,
O'zDJTU qoshidagi 3-akademik litsey o'quvchilari

SOG'LOM AVLOD – SOG'LOM KELAJAK

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab yosh avlod salomatligi, ularning ham ma'nau, ham jismonan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishlari yo'lida davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga keng tatbiq etilmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi o'quv markazi zalida «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondining navbatdan tashqari konferensiyasi bo'lib o'tdi. Tadbirida so'zga chiqarilgan fond tomonidan yurtimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish, iqtidorli bolalarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, «Sog'lom avlod» harakatini rivojlantirish yo'lida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda talaygina ishlar amalga oshirilganligini aytib o'tishdi.

Jumladan, fond tomonidan respublikamizda tibbiy ijtimoiy patronaj tizimi tashkil etildi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida yurtimizdagi bemor bolalar Germaniya, Hindiston, Koreya Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlarda xayriya yo'li bilan sog'lomlashtirildi.

O'tgan yillar davomida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi va bir qancha tegishli tashkilotlar hamkorligida Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining chekka va ekologik noqulay hududlariga muruvvat yordamlari ortilgan «Salomatlik» poyezdlari jo'natildi. Mazkur poyezd shifokorlari ushbu hududlardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi.



Bundan tashqari, fond tomonidan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida yil davomida o'smir qizlararo «Sog'lom avlod uchun» kubogi respublika sport festivali, musiqa maktablari o'quvchilari o'rtasida «San'at g'unchalari» respublika yosh musiqachilar ko'rik-tanlovi, «Navro'z sadolari» ko'p ovoqli milliy cholg'u ansambllarining respublika festivali kabi ko'plab tadbirlar o'tkazilmoqda.

Yig'ilish so'ngida fond tomonidan joriy yilda ham yosh avlodni sog'lomlashtirish, imkoniyati cheklangan bolajonlarni jamiyatda o'z o'rinlarini topishiga ko'maklashish, yoshlarning iqtidorini namoyon etishiga sharoit yaratish bo'yicha talaygina ishlarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Ozoda TURSUNBOYEVA


Tabriklaymiz!

BAHOR UNI QIPLASHGA KELD...



«Tong yulduzi» gazetasining adabiyot va san'at bo'limi mudiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, «Bodomginam», «Qorachiqa asraganimsan», «Bahorimdan kechikkan gul», «Qirg'azal» kabi she'riy va «Ibratli hayot», «Baxt izlagan odam» nomli biografik qissalar hamda «Tog'lar ham qariydi» nomli hikoyalar to'plami muallifi, taniqli shoir AXTAMQULI o'zining yarim asrluk to'yini nishonlamoqda. Tahririyat xodimlari va gazetxonlar nomidan hamkasbimizni samimiy qutlaymiz.

50



TAASSUROTTLAR BIR OLAM

Marg'ilon shahridagi 3-umumta'lim maktabining bir guruh o'quvchilari tarix va huquq fanlari o'qituvchisi Abduvohid Mamasiddiqov rahbarligida Qo'qon shahriga sayohat uyushtirishdi. O'quvchilar sayohat davomida XIX asr obidasi hisoblangan Xudoyorxon o'rdasi va u yerdagi tarix muzeyida bo'lib, xalqimizning o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, yosh sayohatchilar Qo'qon shahrining diqqatga sazovor joylarini, jumladan, Yoshlar markazi,

markaziy istirohat bog'i, temiryo'l vokzalini tomosha qildilar. – Sayohat bizda katta taassurot qoldirdi, tarix faniga bo'lgan qiziqishimizni oshirdi. Ayniqsa, shaharda yangidan qurilgan mustaqillik inshootlari bizni hayratga soldi, – deydi 9-«A» sinf o'quvchisi Muslima Rahmatova. Sayohat yakunida o'quvchilar bilimini sinovdan o'tkazish maqsadida «Siz tarixni bilasizmi?» mavzusida viktorina o'tkazildi. **Muhammadjon MAHMUDOV, Marg'ilon shahri**

BO'LAJAK MATEMATIK

Kosinus, sinus, tangens, kotangens... Bu algebra o'ld terminlar-ku, deysizmi? Juda to'g'ri! Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 122-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Hilola Allaberganova matematika fanini jon-u dilidan yaxshi ko'radi. Mana, u bugun ham sinfdoshlari orasida algebra faniga oid barcha masala-yu misollarni tez va to'g'ri yecha oldi. Qolaversa, matematika fani oyligida o'tkazilgan barcha tadbirlarda faol qatnashib, o'qituvchilari e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Hilola «Matematik loto», «Informatik loto» singari o'yinlarda, oylikka doir maktabda o'tkazilgan shahsha musobaqasida ham o'z iqtidorini namoyish qildi. Muqaddas Hoshimova, Gulnora Ahatova, Ayxon Esnazarova, Zuhra Malsheva singari ustozlaridan matematika, informatika fanlarini chuqur o'rganishga kirishgan Hilolaning erishayotgan yutuqlari bisyor. Biz uni kelajakda yetuk matematik bo'lib yetishishiga ishonamiz. **O'z muxbirimiz**

MAKTAB BOG'IDA BAYRAM

Navro'z ayyomini maktab bog'ida o'tkazsangiz, qanday soz, to'g'rimi?

Umumxalq hasharida faol bo'lgan Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi 54-maktab o'quvchilari bayramni ana shunday o'tkazishdi. Eng quvonarlisi, o'quvchilar maktab bog'iga 1750 dona o'rik, olma, yong'och, nok va boshqa mevali hamda manzarali daraxtlar ekib, uni «Muhammad Yusuf bog'i» deb atashdi. Bu ishlarga bosh bo'lgan maktab direktori Xolyor aka Nazarov shogirdlarining shijoatidan

quvonib, tashabbuskorliklarini qo'llab-quvvatladilar. Tinib-tinchimas o'quvchilar esa shoirning 60 yilligiga atab oltin dona bodom va gilos ko'chatlarini ham o'tqazishdi. Buni qarangki, endi maktabda tashkillashtiriladigan turli sayllar, tadbir-u musobaqalar tabiat qo'ynida bo'lib o'tadi. Ulardan birinchisi esa, albatta, Navro'z bayrami bo'ldi. **Bobur SOBIROV, Surxondaryo viloyati, Boysun tumani**

Bugun yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Prezidentimizning «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga



ifoda etib kelmoqdamiz. Shuningdek, maktabimizdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash to'garagida tinglab tushunish, og'zaki nutq, yozuv va o'qishni mukammal o'zlashtirmoqdamiz. **Yagona maqsadimiz,**

YURT RAUNAQI YO'LIDA

muvofiq maktabimizdagi ingliz tili to'garagida ham mashg'ulotlar muntazam olib borilmoqda. Bilim maskanimizda o'tkaziladigan bayram tadbirlarida ingliz tilida o'rgangan bilimlarimizni to'g'irchoq teatri, sahna ko'rinishlari va ashulalar aytish bilan

Vatanimiz ravnaqi, porloq kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shishdir. **Muxsinaxon HAMIDOVA, Farg'ona viloyati, Furqat tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi**

YANA TA'TIL BOSHLANDI

Mana, eng uzun 3-chorak ham yakunlanib, yana ta'til kunlari boshlandi. Endi sevimli mashg'ulotlaringiz bilan shug'ullanishga vaqt yetarli, o'qib tugata olmayotgan kitobingizni esa oxiriga yetkazishingiz mumkin. Shu orada sog'lig'ingizga e'tibor berib, madaniy hordiq ham chiqarib oling! Bunda esa sizga «Tong yulduzi» ko'maklashadi, degan umiddamiz. Anchadan buyon tahririyatimizga maktub yo'llashni o'ylab yurgan bo'lsangiz, 3-chorakni necha baholarga yakunlaganingiz-u ta'tilni qanday o'tkazayotganingiz to'g'risida yozib yuboring!



BAHOLARIM BESH BO'LDI

Aziz tengdoshim, siz 3-chorakni qanday yakunladingiz?! O'zingizdan so'rasak, deysizmi?

Men ota-onamning, qolaversa, ustozim Dilorom opa Boqijonovaning ishonchlarini oqlagan holda barcha fanlardan yakuniy nazoratni a'loga topshirdim. Maktabimizdagi «Kamolot» YOIHning faol a'zosi sifatida esa ta'tilda ham rejaralarim talaygina. Ona tili va adabiyot faniga qiziqqanim bois, ustozimning topshiriqlarini bajarib, ta'til kunlarida badiiy adabiyotlar o'qimoqchiman. Shuningdek, yurtimizda bahor nafasi kezb yurgan shu kunlarda oilamiz bilan tabiat qo'yniga sayrga chiqamiz. Sinfdoshlarim bilan esa turli muzeylarga sayohat tashkillashtirganmiz. Istagim, ta'tildan unumli foydalanib, o'qishda faol va a'loch o'quvchi bo'lmoqdir. **Iroda YO'LDOSSHEVA, Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 196-maktabning 8-«G» sinf o'quvchisi**

IBRATLI HAYOT

Bolalik atalmish beg'ubor, musaffo olamda yashaydigan, bolajonlar uchun mehnat, ijod qiladigan insonlar sira qarimaydi, deganlaricha bor ekan.

Yaqinda taniqli bolalar yozuvchisi, mohir jurnalist, uzoq yillar mobaynida bolalar va o'smirlarning sevimli nashrlari «G'uncha», «Gulxan» jurnallariga Bosh muharrirlik qilgan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibasi Yayra opa SA'DULLAYEVA bilan uchrashib, dildan suhbatlashib, bu fikrning nechog'li to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldim. Yayra opa 80 yoshni qoralab qolgan bo'lsalar-da, hamon o'sha-o'sha – bolaqalbli, gap-so'zlari, harakatlari, kulgulari samimiy.

Ayniqsa, bolalik xotiralaridan so'raganimizda, Yayra opa yanada yayrab gapiraverdilar, biz esa yozib olavardik.



GAZETAGA OBUNA BO'LGANMAN

– Poytaxtimizning Sebzor dahasida tug'ilganman. Oilada ikkinchi farzand edim. Dastlab 15-, keyinchalik 16-maktabda a'lo baholarga o'qiganman. Sinfdozlarimga nisbatan kichikroq bo'lganim uchun birinchi partada o'tirardim. Ustozimning saboqlarini jon qulog'im bilan tinglab, uy vazifalarini mustaqil ravishda bajarardim. Hatto ayrim sinfdozlarimga dars tayyorlashda ko'maklashardim. Gazeta haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lganimdan buyon ashaddiy gazetxonga aylanganman. Dadam Ubaydulla aka ziyoli, ma'rifatli inson edilar. Meni birinchilardan bo'lib bolalar va yoshlar uchun chop etiladigan nashrlarga obuna qildirib qo'yardilar.

Bir kuni menga gazeta kelmay qoldi. Sababini so'rasam, pochta amaki, obunang tugadi, dedi. O'shanda rosa yig'lagandim. Dadam shu kuniyoq meni yana obuna qildirib kelgandilar.

SHE'RIM CHOP ETILMADI, LEKIN...

Bolaligidanoq adabiyotga, she'riyatga mehrim o'zgacha edi. Gazetada she'rlari chop etilgan tengdoshlarimga havas qilib, 14-15 yoshimdan she'rlar mashq qila boshladim. Bir kuni «Vatan» nomli she'rimni «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga yubordim. Tahririyatdan javob xati kelgan kuni maktabda menga yetar o'quvchi bo'lmagan, hamma havas bilan qaragan. Garchi she'rim gazetada chop etilmasa-da, menga ko'rsatilgan e'tibordan boshim ko'kka yetgan va kelajakda yanada ko'proq o'qishga, izlanishga, ijod qilishga undagan edi.

MAQOLAM USTOZGA YOQDI

Maktabni tamomlab, O'zMU (avvalgi ToshDU)ning filologiya fakultetiga o'qishga kirdim. Jussam kichkina bo'lgani uchun dastlabki kunlarda, maktab o'quvchisiga bu yerda nima bor,

degan gaplarni ham eshitganman. Lekin ustozlarimning, sen saboqlarni tezda ilg'ab olasan, degan maqtovlaridan ruhlanardim.

Universitetdan amaliyot o'tash uchun «Motor» nomli gazetaga yuborishdi. To'g'risi, bu yerda juda zerikib ketdim va yoshlar gazetasiga o'tib oldim. «U tokar bo'ladi» nomli ilk maqolam gazetada chop etilganida, ustozim Shorahim Azimov: «O'zingiz yozdingizmi?» deb so'ragandilar. Keyin esa bir oromgohga lavha tayyorlab kelish uchun yuborishdi. Avvaliga taniqli jurnalistlarning maqolalariga o'xshatib yozishga urinib ko'rdim. Ko'nglim to'lmadi. Shunda o'z bilganimcha yozishga ahd qildim. Maktablar bo'limi boshlig'i Abdulaziz Vahobovga maqolamni ikkilanib topshiryapman-u, xayolimdan: «Yoqmasa, qaytadan, ular xohlagandek qilib yozib beraman», degan o'y kechyapti. Ne baxtki, maqolam ustozimga juda ma'qul bo'ldi va shu tariqa erkin yozishni o'rgandim. Juda ko'p o'qirdim, O'tkir Hoshimovning yozish uslubidan, E'tibor Oxunovanning publitsistikasidan, O'lmas Umarbekovning ijodidan ilhomlanardim.



BUVILIK SAODATI

Keksalarimizning: «Iloyo o'zingdan ko'paygin», degan duolari ijobati shu bo'lsa kerak: olti nafar nabiraning buvisi bo'ldim. Ularning siymosi, fe'l-atvori, xatti-harakatlarida qizlarim Yashnarxon, Yulduzxon, o'g'lim Hamzaxonning

bolaligini ko'raman. Har birining o'z qiziqishi, intilishi bor. Ilm-fanga qiziqadigan nabiram bilan shu mavzuda suhbatlashish uchun qiziqarli ma'lumotlar, yangiliklar topib qo'yaman. Habibxon ismli nabiram futbol ishqibozi. U bilan faqat futbol haqida suhbatlashamiz. Messi kim-u, Ronalduning qanday o'yinchi ekanligini juda yaxshi bilaman...

Nabiralarim – mening qo'shqanotim. Ularga rivoyat va hikmatlardan so'zlab beraman. Suhbatimiz davomida ko'proq maqol ishlatishga harakat qilaman. Kim ko'p maqol aytish o'yinini men boshlab beraman, ular davom ettirishadi...

Bir buvilik saodati shunchalik bo'lar...

«TUTAB O'TGAN UMRNI UMR DEMAYMAN...»

deb yozgan edi taniqli bir rus yozuvchisi. Ana shu iborani o'zimga shior qilib olganman. Yoshim bir joyga borib qolgan bo'lsa-da, yozishdan charchamayman. Zero, vaqtiy va jismoniy ulg'ayish insonning har bir kuni g'animat ekanini anglatuvchi pog'onadir. Bu pog'onada inson bir to'xtab tin olarkan-u, o'ziga-o'zi savol berarkan: «Men qanday yashadim? Hayot menga nelar berdiyu, nelarni unga qaytara oldim?..» Bu savollarga javobimdan ko'nglim to'ladi: «Hayotim juda mazmunli o'tyapti. Yigirmaga yaqin kitoblarni, dastlab Mirzacho'lda, keyinchalik «G'uncha», «Gulxan» jurnallari tahririyatida qilgan mehnatlarim, baxtli onlarim, ko'ksim ko'kka yetgudek parvoz etgan kunlarimni hayotga berganlarim, deb bilaman».

YASHASIN HAYOT ALANGASI!

Hayotga nazar tashlasak, hech nima o'z-o'zidan yaralgan emas, har bir narsaga qanchadan qancha mashaqqat, tinimsiz mehnat orqali erishiladi. Ana shu mashaqqatli yo'lda ustozlarimiz bizga yo'ldosh bo'ladilar. Garchi, taniqli shoir va yozuvchilarimiz qo'limizga qalam tutqazib, bizga ijod sirlarini o'rgatmagan bo'lsalar-da, ularning asarlarini, she'rlarini o'qib, ijodning sirli olamiga kirib borganimiz, borayotganimiz rost.

Shu ma'noda sevimli ijodkorimiz Yayra opa Sa'dullayevaning ijodini yoshlarga bir maktab, hayot yo'lini ibrat qilsak arziydi.

Onaxon yozuvchimizni tabarruk yoshlari bilan muborakkob etib, ulardan yana ko'plab asarlar kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA

San'atni sevmaydigan, undan zavqlanmaydigan bola bo'lmasa kerak. Negaki, har qanday san'at asari bola his-tuyg'usiga, ruhiyatiga ta'sir etib, uning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 15-bolalar musiqa va san'at maktabida o'quvchilar darsdan tashqari xalq cholg'u sozlari, fortepiano, raqs, xoreografiya hamda tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha saboq olmoqdalar.

Jumladan, Alisher Donishbekov rahbarlik qilayotgan tasviriy san'at to'garagi a'zolari predmetning o'ziga qarab rasm chizish, ranglar aralashmasidan boshqa ranglar hosil qilish, ochiq havoda rasm ishlashga alohida e'tibor qaratib, Qutlug' Basharov, Chingiz Axmarov, O'rol Tansiqboyev singari taniqli musavvir bo'lish yo'lida tinmay izlanmoqdalar.

BOLALARGA ZAVQ ULASHIB...



Tajribali pedagog O'tkir O'sarov rahbarligidagi xalq cholg'u sozlari yo'nalishida 60 nafar o'g'il-qiz qashqar rubobi, dutor, g'ijjak kabi cholg'u asboblari kuy chalish, ular jo'rligida qo'shiq ijro etishni qunt bilan o'rganishmoqda. Quvonarlisi, ular tuman va viloyat miqyosida o'tkaziladigan bayram tomoshalarida o'z dasturlari bilan muntazam ishtirok etib kelishmoqda.

– Bola doimo go'zallikka intilib yashaydi, borliq mo'jizalaridan zavq oladi. Biz mashg'ulotlar davomida 110 nafar o'g'il-qizlarga san'atni qadrilashni, borliqni turli ranglarda tasvirlashni tushuntirib boramiz, – deydi 15-bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, oliy toifali pedagog Baxtiyor Qurbonov.

Kelgusida bu maskandan san'atni qadrlaydigan yetuk avlodlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati

G'URUR – IFTIXORIMSAN

Vatanim O'zbekiston
G'urur – iftixorimsan.
Talpingan ona makon,
Ezgu umid, orimsan.

Ajdodlar ruhi qo'llar,
Har jabhada, har ishda.
Doim bo'lgay madadkor,
Haqqim bor sevinishga.

O'sayotgan yosh avlod,
Vatanim deb ulg'ayar.
Errangi kun ishonchin,
Chin yurakdan his etar.

Umidaxon HAKIMOVA,
Namangan viloyati, Norin tumanidagi
40-umumta'lim maktabi o'quvchisi



VATAN TUYG'USI

har narsadan qadrlri

«O'zbekistonning bitta yo'li bor: mustaqillikni mustahkamlab, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurish». Yurtboshimizning mazkur so'zlari kattalar qatori yoshlarning ham ong-u shuuriga singib ketgan. Bugun o'g'il-qizlarimiz ozod yurtimiz, go'zal diyorumiz, farovon hayotimiz haqida qalam tebratar ekanlar, «Vatan haqida ijod qilishning o'zi katta baxt», degan so'zni qayta-qayta ta'kidlaydilar. Zero, Vatan tuyg'usi har narsadan qadrliroqdir.

Mana, qo'limizda «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga kelgan talaygina maktublar. Ularni saralar ekanmiz, bir-biridan mazmunli ijod namunalari ko'rib, qalbimiz zavqqa to'ladi. Hatto bu an'anaviy tanlovga ustoz-murabbiylar ham befarq emasliklari bizni yanada quvontiradi. Buning uchun jonkuyar ustozlarimizga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.



Ulardan biri Namangan viloyati, Norin tumanidagi 40-umumta'lim maktabi o'qituvchisi D. Salomova ijodkor o'quvchisi haqida shunday jumalarni yozadi:

«Umidaxon Hakimova a'lo baholarga o'qishi, namunal xulqi va maktab hayotidagi faolligi bilan ajralib turadi. Ijodkor qizimiz barcha fanlarga qiziqadi. Ayniqsa, ona tili va adabiyot, ingliz tili fanlarini yanada chuqur o'rganishga harakat qiladi. Umidaxondan umidimiz katta».

Quyida, mazkur tanlovga o'quvchilarimizdan kelgan ijod namunalariidan ayrimlarini e'tiboringizga havola etamiz.

ONAM KABI YAGONA

Onam kabi yagona Vatan,
Otam kabi mehribon Vatan.
Ulg'ayaman shodon, baxtiyor,
Ulug' bo'ston shu aziz Vatan.

Keng, bepoyon dala-girlari,
Ochilibdi qiyg'os gullari.
Bundan xursand o'g'il-qizlari,
Keng, bepoyon shu aziz Vatan.

Biz yashaymiz nurli makonda,
Biz kuylaymiz dala-girlarda.
Biz yayraymiz sening bag'ringda,
Tilda doston shu aziz Vatan.
Diyora SATTOROVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
117-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi

To'lqin JOLG'ASHEV,
Surxondaryo viloyati,
Jarqo'rg'on tumanidagi
32-umumta'lim
maktabining
7-sinf o'quvchisi



Aziza SAPARMETOVA,
Xorazm viloyati, Urganch
shahridagi 17-umumta'lim
maktabining 4-sinf o'quvchisi



Let's learn English! Ingliz tilini o'rganamiz!

Let's learn a poem about rain my clever friends!




When the rain comes down,
Dri p-drop, dri p-drop.
Wind shield wipers flip flop flip flop,
Boots in puddles pli plop pli plop.
I wish the rain would never stop,
Dri p-drop, dri p.
Fli p-flop, fli p,
Pli p-plop, pli p-plop,
PLOP!

THE WEATHER – OB-HAVO

Do you know dear pupils how to say the weather in English? If you don't know, look at the pictures and you can easy learn them: Ingliz tilida ob-havoni qanday aytilishini bilasizmi? Agar bilmasangiz, ushbu rasmlar orqali ularni osongina o'rganib olishingiz mumkin:



sunny (quyoshli)



cloudy (bulutli)




clear (ochiq havo)



foggy (tumanli)



windy (shamolli)



raining (yomg'irli)



snowing
(qor yog'ishi)



hailing
(do'l yog'ishi)



lightning
(chaqmoq chaqishi)

PUZZLES – TOPISHMOQLAR

It grows twist or alone,
It's purple and very small.
Its form is round,
And useful for you.



I am a fruit,
My colour green and yellow.
I look like number eight,
Say me what I am.



Shahnoza KARIMOVA

Test

1) Often after the lightning it will be ...

- a) raining;
- b) snowing;
- c) clear.

2) Usually winter days will be ...

- a) sunny;
- b) clear;
- c) snowing.

O'zDJTU talabasi
Dinara SHAKIROVA
tayyorladi



Aziz o'quvchilar, bo'sh vaqtingizda kitob mutolaa qilishni yaxshi ko'rasiz-a? Ayniqsa, kitob muallifi uzoq yillar mobaynida sizga ta'lim-tarbiya berib, har bir ishda jonbozlik ko'rsatgan ustozingiz bo'lsa, qanday yaxshi. Bugun biz tanishtirmoqchi bo'lgan inson izlanuvchanligi, fidoyiligi hamda ijodkorligi bilan sizga tanish bo'lsa, ajabmas.

FIDOYI USTOZ

Muhayyo opa TO'LAGANOVA uzoq yillar mobaynida Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 3-umumta'lim maktabida yosh avlodga saboq berganlar. Ijodkor ustozning bugunga qadar bolalar uchun qissa va hikoyalari jamlangan bir nechta kitoblari chop etilgan. Uning yaqinda «Toza havo» nomli hikoyalari to'plami ham nashrdan chiqdi.

Muhayyo opa ayni paytda «Yangiyo'l» gazetasi qoshida tashkil etilgan «Orzu» badiiy to'garigida ijodkor o'quvchilarga

o'z bilim va tajribalarini o'rgatib kelmoqda. Ustoz tumandagi o'quv muassasalarida o'tkaziladigan turli tadbirlarda, uchrashuvlarda ishtirok etib, respublika gazeta va jurnallarida ijod namunalari bilan faol qatnashib turadi.

Bugun 55 yoshni qarshilash arafasida turgan Muhayyo opa To'laganovani muborak yoshlari bilan chin dildan qutlaymiz. Quyida ustoz shogirdlarining ijod namunalardan e'tiboringizga havola qilamiz.



BEZANAR BUTUN BORLIQ

Tabiatga iliqlik,
Bag'ishlab keldi bahor.
Shodligidan mavjlanib,
Oqadi xushchan anhor.

Dov-daraxtlar uyg'onar,
Charx urar ko'kda qushlar.
Erkin qanot yozishib,
Bahorjonni olqishlar.

Hademay kelinchakday,
Bezantar butun borliq.
Bahoriy taomlardan,
Elga etilar tortiq.

Shohruh USMONALIZODA,
Yangiyo'l tumanidagi
62-umumta'lim maktabining
5-sinf o'quvchisi

YOMG'IR YOG'AR

Sekin-asta shivirlab,
Yog'adi dona-dona.
Ma'yus qo'shig'in kuylab,
O'zin urar har yona.

Nimanidir pichirlab,
Mayda yog'adi yomg'ir.
Savol bergim keladi,
Yosh to'kishingda ne sir?!

Hamon yog'ar tin bilmay,
Yig'lar menga jim boqib.
Balki bir kun to'xtar u,
Qalbinga uchqun yoqib.

Maftuna ABDUJABBOROVA,
Yangiyo'l tumanidagi
61-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

BETAKROR O'LKAM

O'zbekiston jannatdek diyor,
Bu dunyoda noming ulug'vor,
Senga bo'lsin baxt-u iqbol yor,
Farzandlaring sog'lom, baxtiyor!

Dunyoda sen yagona go'sham,
Betakrorsan – betakror o'lkam!

Istiqloling berdi obodlik,
Ko'ngillarga quvonch-u shodlik,
Yoshlar zukko hamda sabotlik,
Yurtimizda tinchlik, ozodlik!

Dunyoda sen yagona go'sham,
Betakrorsan – betakror o'lkam!

Bog'larida bitar bol, asal,
Yigiti bek, qizlari go'zal,
Noming tilga olganim mahal,
Ta'rifingga yetmas so'z, g'azal!

Dunyoda sen yagona go'sham,
Betakrorsan – betakror o'lkam!

Nasriddin BOTIROV

BAHORNING ELCHISIMAN

Mening ismim qaldirg'och,
Bahor bilan kelaman.
Samolarda charx urib,
Zavq-u shavqqa to'laman.

Bahorning elchisiman,
Qushlarning kuychisiman.
Uylar to'ri meniki,
Insonga mehrim baland.

Xurshida TOLIPOVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz
tumanidagi 42-umumta'lim
maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

SHU AZIZ TUPROQ

Vatan bayrog'ini ko'targil baland,
Sen jasur, mard bo'lgan hayotda, o'g'lon.
Mehrini onamdek bizga baxsh etgay,
Jahonni lol etgan hur O'zbekiston.

Bizni ardoqlagay shu aziz tuproq,
Ona yurt bag'rida ulg'ayib o'sdik.
Ona quchog'idek biz uchun qaynoq,
Vatanni sevishni yurakdan sezdik.

Lobar MAHMUDMURODOVA,
Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
277-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi



MENING QUYOSHIM

Yo'llarim yoritgan nurimdir kitob,
Oltinim, xazinam, durimdir kitob.
U do'stim, hamsuhbat borimdir kitob,
Odobim, kitobim – oftobim mening.

Tengi yo'q go'zallik, bahorim dedim,
Ma'nolar taratgan iforim dedim.
Sendadir kamol-iftixorim dedim,
Odobim, kitobim – oftobim mening.

Mening quyoshim, chorbog'im o'zi,
Qalbm alangasi, chirog'im ko'zi.
Erur qadrufonim har bitta so'zi,
Odobim, kitobim – oftobim mening!

Ozoda BOBOMURODOVA,
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on
tumanidagi 63-umumta'lim
maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

JIYANIM ULUG'BEKKA

Bugun ikki yoshdasan,
Yugurasan, yelasan.
Tillaring chala biyron,
Quvonch olib kelasan.

Qoqilsang ham yurasan,
Yiqilsang ham kulasan.
Qiliqlaring yarashar,
Toychoq o'g'il bolasan.

Qalbing sening oppoq-oq,
Otayotgan tongdayin.
Oldga yugur doimo,
Irg'ishlagan toydayin.

Nurdona MUZAPPAROVA,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq
tumanidagi 68-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



BELLASHUV

Sinf doshlar, men sizga
Aytayin bir ertakni.
O'ylab ko'rib aytangiz,
Qalbmimdagi istakni.
Bir maktabda o'qirkan,
Ikki bolakay shodon,
Birinchisi aqlli,
Ikkinchisi sal nodon.
Maktabaro bir kuni,
Bo'libdi bir bellashuv,
Ustozlari aytibdi,
Bellashuvning sharti shu:
Sakrashga to'g'ri kelar,
Uch metrda uzoqqa.
Yugurib borish kerak,
Ko'rinib turgan toqqa.
Kim qatnashar tanlovga,
Kimda bor qanday fikr?
O'ylab ko'rib aytang-chi,
Kim bundan ishga qodir?!

Diyoraxon ABDULLAJONOVA,
poytaxtimizdagi 214-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi

«Yurtimizda yosh avlodning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlar muhayyo etilmoqda. Viloyatimizda futbolga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining faoliyat yuritishi ham ana shu yuksak e'tibor namunasi, deb bilaman.

Ayni paytga qadar, viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan futbol musobaqalarida faol ishtirok etib, o'z iqtidorim bilan muxlis-utmutaxassislar nazariga tushdim, ota-onam, ustozlarim ishonchini oqladim. Kelajakdagi eng katta orzum Odil Ahmedov, Server Jeparov kabi o'zbek futboli dovrug'ini butun dunyoga tanitishdir».



NAVOIYLIK YOSH CHEMPIONLAR

Bu Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi futbol bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati tarbiyalanuvchisi Izzat Ismoilovning dil so'zlari.

Davlatimiz tomonidan yoshlarimiz o'rtasida futbol sport turini keng targ'ib etish, uning ommaviylikini ta'minlash borasida qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2011-yil 19-yanvardagi «2011–2013-yillarda respublikada futbolning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va uni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ham sohadagi ishlar ko'lamini yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada, futbol farzandlarimiz orasida eng ommaviy sport turiga aylandi.

Navoiy viloyati futbol bo'yicha

davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati 1996-yildan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda. Bu yerda yosh futbolchilarning o'z mahoratlarini oshirishlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

2009-yilda maktabning yangi o'quv binosi, 12x24 o'lchamdagi sport zali qurib, foydalanishga topshirildi. «Umid nihollari – 2012» respublika o'quvchi yoshlar sport musobaqalari dasturiga asosan, viloyat futbol maktab-internati o'quvchilari uchun 100 o'ringa mo'ljallangan yangi zamonaviy turarjoy binosi hamda 24x44 o'lchamdagi qumli stadion qurib bitkazildi.

Yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, o'z iqtidorini namoyon etishga intilayotgan maktab-internati

tarbiyalanuvchilari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi futbol maktab-internatlari o'rtasida o'tkaziladigan barcha musobaqalarda faol ishtirok etib kelishmoqda.

Jumladan, 2010-yil Navoiyda bo'lib o'tgan futbol musobaqasida internat futbolchilari g'oliblikni qo'lga kiritdi.

2011-yil Toshkent shahridagi respublika birinchiligi musobaqalarining mintaqaviy bosqichida 1996–1997-yillarda tug'ilgan o'smirlar jamoasi Andijon, Toshkent, Jizzax viloyatlari hamda Toshkent shahri jamoalari bilan o'zaro kuch sinashib, yakunda ikkinchi o'rinni egalladilar.

2013-yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida

o'tkazilgan turnirda ham 1998–1999 va 2000–2001-yillarda tug'ilgan navoiylik yosh futbolchilar o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi.

Hozirda maktabning ko'plab yosh futbolchilarini yurtimizning kuchli jamoalari o'z tarkiblariga qo'shib olishni istamoqda. Jumladan, Izzat Ismoilov, Xayrullo Nizomov, Jahongir Miraliyev, Mutalib Murtazayevning iqtidori mutaxassislar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Biz navoiylik futbolchilarning mamlakatimizning turli yosh terma jamoalari safida xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, O'zbek futboli dovrug'ini butun dunyoga tanitishiga tilakdoshmiz.

Sa'dullo TURSINOV



Andijon viloyatining Jalaquduq tumanida «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi ijrosi yuzasidan o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport festivali o'tkazildi.

JALAQUDUQDA SPORT FESTIVALI

Tuman hokimligi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuman Kengashi, madaniyat va sport ishlari, Bolalar sportini rivojlantirish jam'armasi tuman bo'limlari hamkorligida tashkil etilgan festivalda 1100 nafardan ziyod o'quvchi-yoshlar sportning basketbol, voleybol, qo'l to'pi, yengil atletika, stol tennis, mini futbol turlari bo'yicha o'zaro kuch sinashishdi.

– Umumta'lim maktablarining qariyb sakkiz ming o'quvchisi sportning o'n beshga yaqin turi bilan muntazam shug'ullanmoqda, – deydi Bolalar sportini rivojlantirish jam'armasi Jalaquduq tumani bo'limi rahbari Odiljon Mirzayev. – Bugungi musobaqalarda ularning imkoniyatlari yana bir bor sinovdan o'tkazildi.

Festival Prezidentimiz rahnamoligida sportga, ayniqsa, bolalar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tiborning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Shoh MUHAMMAD

SALOMATLIK GAROVI

«Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur!» Bu so'zlar zamirida olam-olam ma'no mujassam. Men ham bu so'zlarni o'zimga shior qilib olgan holda sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqdaman.

Ustozim Svetlana Murashkina qo'l ostida tennis sir-asrorlarini qunt bilan o'rganyapman.

Dugonalarim orasida iqtidorli sportchilar juda ko'p. Jumladan, tengdoshim Yevgeniya Avramenko sakkiz yildan beri tennis bilan shug'ullanib, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritgan. U ayni paytda nemis va ingliz tillarini ham puxta o'rganmoqda. Olimlarning aniqlashicha, tennis o'yinini kuzatish ko'z uchun juda foydali ekan. Shunday ekan, nafaqat tengdoshlarim, balki barcha yoshdagi insonlarni ushbu sport turi bilan shug'ullanishlarini istardim.

Dildora BOTIROVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 129-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi

Yu. ABDULLAYEV olgan surat

SIZNING KITOB JAVONINGIZGA

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan ommabop eng yangi adabiyotlar

Qadrli o'quvchilar! Bugun sizning kitob javoningizga «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan yangi kitoblardan yana bir nechtasini tuhfa etmoqchimiz. Ushbu kitoblardagi rang-barang fikrlar, ustoz adiblar haqidagi esdaliklar nafaqat sizga, balki oila a'zolaringiz va hatto ustozlaringizga ham asqotadi, degan umiddamiz. Zero, rivoyatlarda aytilganidek, yillar davomida to'plagan kitoblaringiz sizning tuganmas xazinangizga, javohir to'la sandig'ingizga aylanadi. Biz esa ana shu xazinangiz mo'l, bilimingiz-u dunyoqarashingiz keng bo'lishini istaymiz.

HUQUQINGIZNI ANGLATGUVCHI QO'LLANMA

Har biringiz inson huquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat ekanini bilmog'ingiz, fe'l-atvor-u fazilatlaringiz bilan barchaga o'rnatilgan bo'lmog'ingiz zarur. Bunda esa sizga muallif Ra'no Turdiboyevaning «Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish» risolasini qo'l keladi. Ushbu qo'llanmada yozilganidek, yoshlarning yuksak huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Shunday ekan, mazkur risola bilan tanishib, Vatanimiz ishonchini oqlaysiz, degan umiddamiz.

ULUG'LAR HAQIDA ESDALIKLAR

Xalqimizning ulug' allomalari, olimlari-yu shoirlari haqida o'qiganingiz sari ularga munosib bo'lmoqqa chog'lanasiz. O'zbekiston xalq shoiri Oydin Hojiyeva qalamiga mansub «To'rt tanho» kitobida esga olingan Zulfiyaxonim, Muzayyana Alaviya, Saïda Zunnunova va Kibriyo Qahhorovadek xalqimizning sevimli adiba-yu shoira ayollari haqidagi qimmatli ma'lumotlar sizni ham befarq qoldirmaydi. Kitobni o'qib chiqsangiz, bejizga muallif qahramonlarini to'rt tanho deya atamaganiga amin bo'lasiz. O'zbek qizi, ayoli qanday bo'lgani va bo'lmog'ini kerakligini yana bir bor anglab yetasiz.

KOMILLIKKA CHORLOVCHI OFTOB

Xalqimizning dilbar shoirasi, mohir so'z ustasi Tursunoy Sodiqovanning kelinlik ilmi-yu yigitlarning kelajak hayotga tayyorgarliklari, ro'zg'or sirlariga oid bir qancha kitoblarini o'qigan bo'lsangiz kerak. «O'zbekiston» NMIU tomonidan chop etilgan «Ayolga qasida» saylanmasida esa muallifning barcha asarlarini to'plam holida o'qishingiz mumkin. Ayniqsa, kitobdagi «Hazrati ayol» nomli bo'lim barchamizni onalarni hurmat qilishga, e'zozlashga chorlaydi.

Qarang, uchta kitob haqida sizga ma'lumot berib, olam-olam zavq oldik. Agar bu asarlarni to'liq mutolaa qilsangiz, bundanda ko'p taassurotlar olishingiz shubhasiz. Biz esa sizlarni yanada mazmunli kitoblar bilan tanishtirishda davom etamiz.

DUNYODAGI ANTIQA KO'PRIKLAR



Bilasizmi, bolajonlar, dunyoda shunday ajoyib ko'priklar borki, ular haqida o'qib, beixtiyor hayratingiz oshadi. Masalan, osma ko'rik yoki tabiat bilan tanishish uchun piyodalarga mo'ljallangan antiqa ko'priklar haqida hech eshitganmisiz?

Nyu-York shahridagi Gudzon daryosi ustidan o'tgan ko'rik bo'ylab yurgan har qanday kishi, ona tabiatning go'zalligidan bahramand bo'ladi.

Kanadadagi Kapilano daryosi ustida bunyod etilgan osma ko'rik esa 230 metr balandlikda joylashgani bilan hayratlanarlidir. Jami uzunligi 1300 metr bo'lgan bu tor ko'rik bo'ylab sayyohlar Vankuverning yovvoyi tabiati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi.

Lankavi deb nomlangan osma ko'rik Malayziyaning g'arbiy qismida barpo etilgan. Qizig'i, u dengiz sathidan 700 metr balandlikda osilib turadi. Yuqoridan qaraganda, dengiz to'lqinlaridan har qanday insonni vahima bosadi. Ammo bu yerda sayr qilayotgan piyodalarga uchun «Lankavi osmon ko'prigi xavfsizdir» degan yozuv qo'rquvni yengishda yordam beradi.

Bolajonlar! Tahririyatimizga yo'llagan maktublaringiz orqali yana qanday ajoyibotlar haqida bilishni istashingizni yozib yuboring. Biz esa sizlarga bir-biridan qiziqarli ma'lumotlarni ilinishda davom etamiz.

ZUHRA tayyorladi

Aziz qizlarim! Ta'til kunlarida o'z qo'lingiz bilan shirinlik tayyorlab, yaqinlaringizni xursand qilishni istaysizmi? Unday bo'lsa, bugun sizlarga antiqa shirinlikning tayyorlanishini o'rnatmoqchiman. O'ylaymanki, bu mazali pirog oila a'zolaringizga xush yoqadi.



QIYOMLI PIROG

Kerakli masalliq: Xamiriga 250 gr. margarin, 2 stakan shakar, 6 dona tuxum, 1 choy qoshiq iste'mol sodasi, 1 stakan smetana, 1 banka quyultirilgan sut, yong'oq.

Tayyorlanishi: Sirli idishda 6 ta tuxum oqini shakar bilan yaxshilab ko'pirtirib olamiz. Boshqa idishda un, 2 stakan shakar va margarinni uvalaymiz. So'ngra, uning ustidan tuxum sarig'i va smetana solib, xamir qoramiz. Tayyor bo'lgan xamirni gaz patnisiga solib, qo'l bilan bir tekisda yo'yib

chiqamiz va chala pishirib olamiz.

Shundan so'ng, quyultirilgan sut pirog ustiga bir tekisda surtib chiqiladi, uning ustiga tozalab maydalangan yong'oq sepladi. Yarim tayyor pirog ustiga bize joylashtirilib, tekislanadi va qizdirilgan gaz pechida o'rta olovda pishirib olinadi.

Tayyor bo'lgan pirog bo'laklarga bo'linib, dasturxonaga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruza MATYQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 54967
Buyurtma N: J 9488

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro sayriya fond.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.